

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**NamDPI o‘quv ishlari**

**bo‘yicha prorektor**

**\_\_\_\_\_ A.Abdunazarov**

**“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2026-yil**

**60112200- Jismoniy madaniyat yo‘nalishi (kundizgi)  
bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2025/2026 o‘quv yili*

### **Tuzuvchilar:**

**Boltobayev S.A.** - NamDPI Ijtimoiy fanlar fakul'teti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti, tib.f.n.

**Satiyev Sh.K.** - NamDPI Ijtimoiy fanlar fakul'teti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Mahmudjonov A.A.** - NamDPI Ijtimoiy fanlar fakul'teti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrası o'qituvchisi

**Ergashev I.U.** – Namangan viloyati, Uychi tumani bolalar va o'smirlar sport maktabi direktori.

### **Taqrizchilar:**

**Azizova R.I.** - NamDPI Ijtimoiy fanlar fakul'teti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrası dotsenti.

**Ummatov N.R.** - NamDPI Ijtimoiy fanlar fakul'teti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrası professori

60112200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Jismoniy kafedrasining 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**S.V.Azizov**

60112200 – Jismoniy madaniyat yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat pedagogika instituti Kengashining 2025-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

**Kengash kotibi**

**A.Abdurahmonov**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. 60112200- Jismoniy madaniyat yo‘nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o‘rinlarda – **Dastur**) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2022 yil 09 sentabrdagi 302-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “60112200- Jismoniy madaniyat yo‘nalishining malaka talablari” (keyingi o‘rinlarda – **Malaka talablar**) hamda № V 60112200 2023 tartib raqami bilan ro‘yxatga olingan o‘quv rejasining (keyingi o‘rinlarda – **O‘quv rejasi**) umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o‘quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o‘rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko‘ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta‘lim yo‘nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko‘ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildiragan, o‘quv rejasidagi ta‘lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o‘quv reja va fan dasturlarini to‘liq tugatgan va o‘quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O‘quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o‘quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo‘yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo‘naltiriladi.

## II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2025/2026 o‘quv yilida 60112200- Jismoniy madaniyat yo‘nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – bitiruv malakaviy ish yozma - ijodiy shaklda o‘tkaziladi.

7. Dastur Institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o‘quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shaklini o‘zgartirish mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi institut o‘quv jarayoni grafigiga asosan, o‘quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o‘tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

## III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi talablari ta‘lim yo‘nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;

- kasbiy faoliyatga;

- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo‘yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta‘lim yo‘nalishi O‘quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

### Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi

1. Jismoniy tarbiyaning gigiyenik omillarini ayting?

2. Jismoniy mashqlarning tarixiy tasnifini ayting?

3. Harakat texnikasini avtomatlashtirilgan holda bajarish darajasi qanday ataladi?

4. Jismoniy mashqlar mazmunini nima belgilaydi?

5. Sog‘lomlashtirish yo‘nalishi tamoyilining mazmuni nimadan iborat?

6. “Jismoniy madaniyat” tushunchasini ochib bering (O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni bo‘yicha).

7. Shaxsning jismoniy rivojlanishi va jismoniy madaniyat bilimlari shakllanish jarayoni nima deb ataladi?

8. Qaysi sport turida sportchilar musobaqaga tayyorgarlik va ishtirok uchun mukofot yoki maosh oladilar?

9. “Sport” tushunchasining to‘g‘ri ta‘rifini toping?

10. Sport hakami kim?
11. Sportchi nomidan shartnoma asosida faoliyat yuritib, uning huquqlarini himoya qiluvchi shaxs kim?
12. O'zbekiston nomidan xalqaro musobaqalarda ishtirok etuvchi sportchilar jamoasi nima deb ataladi?
13. Jismoniy qobiliyatlardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish nima deb ataladi?
14. Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi nodavlat notijorat tashkilotlarga qaysilar kiradi?
15. Sportchining davlat mukofotlari haqidagi ma'lumotlar qaysi hujjatda qayd etiladi?
16. Standart sharoitlarda musobaqaning ma'lum turida qayd etilgan eng yuqori natija nima deb ataladi?
17. Shug'ullanuvchining maksimal jismoniy faollik bilan ishlash vaqti?
18. Inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan jismoniy madaniyat tizimi tamoyili qaysi?
19. .... - kuch sinashaman va bellashaman degan ma'noni anglatadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring
20. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishda asosiy talablardan biri nima?
21. Insonni mehnat faoliyatiga hamda zarurat bo'lganda harbiy faoliyatga tayyorlashni eng ko'p aks ettiradigan tamoyil qaysi?
22. Inson hayoti davomida organizmning morfo-funksional xususiyatlari va shu asosdagi jismoniy sifatlarning shakllanishi va o'zgarishi jarayoni qanday ataladi?
23. O'qitish jarayonining qaysi bosqichida harakatning to'g'ri bajarilishi paydo bo'lib, uni takomillashtirish boshlanadi?
24. O'qitish jarayonining samaradorligi va ko'nikmadan malakagaga o'tish davomiyligi nimaga bog'liq?
25. Jismoniy mashqlar samaradorligi nimaga bog'liq?
26. Harakatni kuzatish va ko'rsatma bilan birga berilgan izohni eshitish asosida nima shakllanadi?
27. Oldindan ma'lum bo'lgan signalga oldindan ma'lum bo'lgan harakat bilan javob berish qanday ataladi?
28. Mashqlarning pedagogik ta'siri nimadan iborat?
29. O'qitish metodlariga qaysilar hisoblanadi?
30. Bolalarni jismoniy tarbiyalashning asosiy vositalari qaysilar?
31. Egiluvchanlikni o'lchash ko'rsatkichi nima hisoblanadi?
32. Oldindan ma'lum signalga (ko'rish, eshitish yoki sezish) oldindan ma'lum harakat bilan javob berish nima deb ataladi?
33. Chidamlilikni rivojlantirish uchun qaysi yugurish turi eng samarali hisoblanadi?
34. Chidamlilikni mashq qilish qanchalik tez-tez tavsiya etiladi?
35. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy vositasi nima?
36. Chidamlilikni mashq qilishda nimaga rioya qilish muhim?
37. Harakatning maksimal amplitudasi asosida qaysi sifat ko'rsatkichi o'lchanadi?
38. Oddiy harakat reaksiyasi nima?
39. Chidamlilikni rivojlantirish uchun qaysi yugurish turi eng samarali?
40. Chidamlilikni rivojlantirishda haftasiga necha marta mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi?
41. Jismoniy tarbiya darsining tayyorlov qismining vazifasi nimalardan iborat?
42. Jismoniy tarbiya darsining asosiy qismining vazifasi nimadan iborat?
43. Jismoniy tarbiya darsining yakuniy qismining asosiy vazifasi?
44. Jismoniy tarbiya darsi tayyorlov qismining vaqti qancha?
45. Darsning tayyorlov qismining asosiy vazifasi nima?
46. Chidamlilik sifatini rivojlantirishning eng qulay yoshi?
47. Jismoniy tarbiya darsi necha qismdan iborat?
48. Darsning asosiy qismi necha daqiqadan iborat?
49. Darsning qaysi qismiga eng kam vaqt taqsimlangan?
50. O'quvchilarning dars vazifalarini tushunishi xronometraj bayonnomasining qaysi bandiga mos?
51. Darsning yakuniy qismi necha daqiqadan iborat?

52. Ta'lim berish (o'qitish), tarbiyalash va sog'lomlashtirish qanday vazifalar turiga mansub?
53. Tarbiya berish qaysi vazifaga mansub?
54. Sog'lomlashtirish qaysi vazifaga mansub?
55. O'qituvchi dars boshlanishidan oldin nimaga e'tibor berishi kerak?
56. Gimnastika darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
57. Yengil atletika darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
58. Harakatli o'yinlarni qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
59. Futbol darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
60. Sport o'yinlari darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
61. Suzish darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
62. Shaxmat darsini qaysi choraklarda o'tish maqsadga muvofiq?
63. Bitta darsda nechta xususiy vazifa hal qilinadi?
64. Frontal usulda guruhning necha foiz o'quvchilari band bo'ladi?
65. Darsning tayyorlov qismida qaysi uslublardan foydalaniladi?
66. Darsning yakuniy qismida qaysi uslublardan foydalaniladi?
67. Jihozlar soniga qarab tashkillanadigan usul qaysi?
68. Darsning asosiy qismida qaysi uslublardan foydalaniladi?
69. Jismoniy tarbiya darsi necha qismdan iborat?
70. Egiluvchanlikning o'lchov birligi qaysi?
71. Egiluvchanlikni o'lchov uskunasi qaysi?
72. Sport o'yinlari qanday harakat turiga mansub?
73. Jismoniy sifat bu nima?
74. Tezlikni o'lchov birligi qaysi javobda ko'rsatilgan?
75. Toliqish vaqtida takrorlanadigan mashq nimani oshiradi?
76. Chidamlilikning necha xili mavjud?
77. Tezlikni namoyon bo'lishining nechta shakllari mavjud?
78. Tashqi ta'sirga qarshi muskul zo'riqishi orqali harakat faoliyati orqali qaysi sifat namoyon bo'ladi?
79. Kuchni o'lchov birligi qaysi javobda ko'rsatilgan?
80. Charchash tarifi qaysi?
81. Tezlikni rivojlantirishning qulay yoshi necha yosh hisoblanadi (o'g'il bolalarda)?
82. Egiluvchanlikning qaysi turini rivojlantirish nisbatan osonroq?
83. Yakkama-yakka olishuv qanday harakat turiga mansub?
84. Chidamlilik tarifini toping?
85. Chaqqonlikning tarifini toping?
86. Maksimal tezlik bilan bajarilayotgan harakatlarda necha xil fazasi farqlanadi?
87. Mashqlarni standart ravishda takrorlash nimani vujudga keltiradi?
88. Tezlikni o'lchov uskunasi qaysi javobda ko'rsatilgan?
89. Egiluvchanlik sifati darsning qaysi qismida rivojlantiriladi?
90. Sakrash qanday harakat turiga mansub?
91. Tezlikni rivojlantirishning qulay yoshi nechchi yosh hisoblanadi (qizlarda)?
92. Qo'sh poyada shug'ullanuvchi qo'llari yordamida tayanishi bu?
93. Abel'skiyning tajribasi bo'yicha dastlab ....., so'ngra ..... qo'llash ijobiy natija beradi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring?
94. Inson qaysi payt egiluvchanroq bo'ladi?
95. Chidamlilik o'lchov uskunasi qaysi javobda ko'rsatilgan?
96. Qo'sh poyada shug'ullanuvchining qo'llarini yozilishi bu qaysi muskul rejimi hisoblanadi?
97. Passiv egiluvchanlik ..... amalga oshiriladi? Nuqtalar o'rnini to'ldiring?
98. Egiluvchanlik necha xil bo'lishi mumkin?
99. Chidamlilik insoning qanday holatida rivojlanadi?
100. Uloqtirish qanday harakat turiga mansub?

## Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi

101. Basketbol o'yinining asoschisi kim?
102. Basketbol qaysi yilda paydo bo'lgan?
103. Basketbol qaysi mamlakatda paydo bo'lgan?
104. Xalqaro basketbol federatsiyasi (FIBA) qaysi yilda tashkil etilgan?
105. FIBA qisqartmasi nimani anglatadi?
106. Basketbol rivojlanishida FIBA ning o'rni qanday?
107. O'yin tarixida basketbol rivojlanishining qanday asosiy bosqichlari ajratiladi?
108. Basketbolning qanday asosiy qoidalari bazaviy hisoblanadi?
109. O'zbekistonda basketbol qanday rivojlangan?
110. Basketbol o'yin texnikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
111. Basketbolda o'yin taktikasi qanday guruhlarga bo'linadi?
112. Basketbolda harakatlanishning qanday turlaridan foydalaniladi?
113. Basketbolda yugurish, to'xtash va burilish texnikasiga nimalar kiradi?
114. Basketbolda sakrash texnikasiga nimalar kiradi?
115. Basketbolda to'pni boshqarish texnikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
116. Basketbolda to'p olib yurishning qanday usullari qo'llaniladi?
117. Basketbolda to'p uzatishning qanday turlaridan foydalaniladi?
118. Basketbolda to'pni qabul qilishning qanday usullari qo'llaniladi?
119. Basketbolda savatga tashlashning qanday turlari qo'llaniladi?
120. Nima uchun jismoniy tayyorgarlik basketbolda muhim ahamiyatga ega?
121. Gandbol sport turi nechanchi yilda paydo bo'lgan?
122. Gandbol sport turi qaysi mamlakatda paydo bo'lgan?
123. Gandbol o'yinining asoschisi kim?
124. Gandbol o'yinining dastlabki qoidalarining muallifi kim?
125. "Gandbol" so'zining ma'nosi nima?
126. Birinchi xalqaro gandbol federatsiyasi qachon tashkil topgan?
127. Gandbolda o'yinchilarni almashtirish hududining o'lchami qancha?
128. Gandbol o'yinida erkaklar to'pining (3-raqam) og'irligi qancha?
129. Gandbol o'yinida ayollar to'pining (2-raqam) og'irligi qancha?
130. Gandbol o'yinida darvozabon hududining o'lchami qancha?
131. Gandbol o'yinida erkin to'p tashlash chizig'i darvozadan qancha uzoqlikda joylashgan?
132. Gandbol o'yinida bir uchrashuvda o'yinchini necha marta almashtirish mumkin?
133. Gandbol o'yinida maydonidagi chiziqlarning eni necha sm?
134. Gandbol maydonining standart o'lchamini ko'rsating.
135. Gandbol o'yinida to'pli o'yinchiga necha qadam qo'yishga ruxsat etiladi?
136. Gandbol o'yinida 7 metrlik jarima to'pi qachon belgilanadi?
137. O'zbekiston Xalqaro va Osiyo gandbol federatsiyalariga qachon qabul qilingan?
138. Gandbol o'yinida o'yinchi to'pni necha soniya harakatsiz ushlab turishi mumkin?
139. Gandbol o'yinida darvoza ustunlari orasidagi chiziqning eni necha sm bo'ladi?
140. Gandbolda darvozaga to'p otishning turlari qaysilar?
141. Futbol to'pining aylanasi qancha?
142. Futbol to'pining ichki bosimi qancha bo'lishi kerak?
143. Futbol darvozasining o'lchamlari qancha?
144. Futbol maydonidagi markaziy doiraning radiusi qancha?
145. Burchak sektoridagi yoyning radiusi qancha?
146. Futbol maydonidagi chiziqlarning maksimal eni qancha bo'lishi mumkin?
147. Futbol maydonining ruxsat etilgan uzunligi qancha?
148. Futbol texnikasi nechta asosiy bo'limga bo'linadi?
149. Futbol Olimpiya o'yinlarida ilk bor qachon namoyish etilgan?
150. Futbol darvoza ustunlari va to'sinining qalinligi qancha bo'lishi mumkin?
151. Futbol maydonining ruxsat etilgan eni qancha?

152. Jarima maydonining darvoza chizig'idan maydon ichkarisiga chuqurligi qancha?
153. Futbol qaysi mamlakatda paydo bo'lgan?
154. Katta futbolda autdan to'p o'yinga tananing qaysi qismi bilan kiritiladi?
155. Katta futbolda bir jamoaning nechta o'yinchisi maydonda o'ynaydi?
156. Penalti zarbasi qaysi masofadan bajariladi?
157. Futbol qachon Olimpiya o'yinlari dasturiga rasman kiritilgan?
158. O'zbekistonda birinchi futbol jamoasi qachon va qayerda tashkil etilgan?
159. Futbol to'pining og'irligi qancha?
160. Futbol bo'yicha birinchi rasmiy qoidalar qachon tasdiqlangan?
161. Voleybol o'yinining asoschisi kim?
162. Voleybol o'yini qaysi yilda paydo bo'lgan?
163. Voleybol Olimpiya o'yinlari dasturiga qaysi yilda kiritilgan?
164. Voleybol O'zbekistonda qaysi yilda paydo bo'lgan?
165. Voleybol maydonining o'lchamlari qanday?
166. Erkaklar jamoalari uchun voleybol to'rining balandligi qanday?
167. Ayollar jamoalari uchun voleybol to'rining balandligi qanday?
168. Voleybol to'pining asosiy o'lcham va og'irlik ko'rsatkichlari qanday?
169. Voleybolda o'yin texnikasining tasnifi.
170. Voleybolda qanday harakatlanish turlari qo'llaniladi?
171. Voleybol o'yin texnikasining asosiy elementlariga nimalar kiradi?
172. Voleybolda to'pni o'yinga kiritish usullari
173. Voleybolda o'yin taktikasi qanday asosiy turlarga bo'linadi?
174. Voleybolda hujum taktikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
175. Voleybolda himoya taktikasi nimalarni o'z ichiga oladi?
176. Voleybolda o'yinchilarning asosiy taktik harakatlariga nimalar kiradi?
177. Voleybol o'yinida hakam hushtagidan keyin to'pni o'yinga kiritish uchun necha soniya vaqt beriladi?
178. Voleybol o'yinida to'p o'ynalayotganda bir jamoaga necha marta tegish ruxsat etiladi?
179. Voleybolda libero o'yinchisining vazifalari qanday?
180. Voleybolda bir partiyada o'yinchilarni nechta marta almashtirishga ruxsat beriladi?

### **Engil atletika va uni o'qitish metodikasi**

181. Yugurishda qanday start turi bor?
182. Uloqtirish bo'limida qanday turlar bor?
183. Erkaklar va ayollar uchun granataning og'irligi qancha?
184. Har xil masofa bo'ylab yugurishda start chizig'i qayerda bo'ladi?
185. Yengilatletika yugurish maydoni necha metr bo'ladi?
186. Yengilatletika necha bo'limdan iborat?
187. Yengilatletikada nech hil sakrash turi bor?
188. Uzunlikka sakrash usullari qaysilar?
189. Yugurishda nechta start turi bor?
190. Qisqa masofaga qaysi masofalar kiradi?
191. Qaysi masofalar o'rta masofaga kiradi?
192. Qaysi masofalar uzoq masofaga kiradi?
193. O'ta uzoq masofaga qaysi masofalar kiradi?
194. Marafon yugurish necha metrdan iborat?
195. Qaysi masofalar to'siqlar osha yugurishga kiradi?
196. Qisqa masofadagi estafeta yugurishga qaysi masofalar kiradi?
197. Yadrone og'irligi yoshlar va erkaklar uchun qancha?
198. Yadrone og'irligi ayollar uchun qancha?
199. Bosqonni og'irligi erkaklar uchun qancha?
200. Nayzaning og'irligi erkaklar uchun qancha?

- 201.Yadro uloqtirishda sektor gradusi qancha?
- 202.Nayza uloqtirishdagi karidorni eni qancha?
- 203.Nayzaning og'irligi ayollar uchun qancha?
- 204.Disk va bosqon uloqtirishda sektor gradusi qancha?
205. O'zbekistonda qaysi viloyatda birinchi bo'lib yengil atletika sport turi rivojlangan.
206. O'zbekistonda birinchi bo'lib yengil atletika sport turi Samarqantda rivojlanganmi?
- 207.Stadion yo'lkasida yugurish qaysi tomonga aylana bo'ylab yuguriladi.
- 208.Diskni og'irligi ayol va erkaklar uchun qancha?
- 209.Vertikal sakrashlarga qaysi sakrashlar kiradi?
- 210.Gorizental sakrashlarga qaysi sakrashlar kiradi?
- 211.Joydan turib sakrashga qaysi sakrashlar kiradi?
- 212.Sportcha yurishning asosiy fazasi qaysi?
- 213.Qisqa masofaga yugurishning asosiy fazalari qaysilar?
- 214.Uzoq va o'ta uzoq masofaga yugurishning asosiy fazasi qaysi?
- 215.Uzoq masofalarga yugurishda qaysi jismoniy sifat zaruriy hisoblanadi?
- 216.Uzunlikka sakrashning asosiy fazalari qaysi?
- 217.Uch xatlab sakrashning asosiy fazalari qaysi?
- 218.Balandlikka sakrashning asosiy fazalari qaysi?
- 219.Balandlikka sakrashning oxirgi fazasi qaysi?
- 220.Yengilatletika fani qaysi mashq turlarini o'z ichiga oladi?
- 221.Yengilatletika fanini o'rgatishda qaysi metodikalardan foydalaniladi?
- 222.«Atletika» so'zini mazmuni o'zbek tilida tushuntirib bering.
- 223.Marafondan Afinagacha bo'lgan marafon yugurish qachon dunyoga keldi?
- 224.Qisqa masofaga yugurishda birinchi o'rganish texnikasi qaysi?
- 225.Qisqa masofaga yugurishda ikkinchi o'rganish texnikasi qaysi?
- 226.Qisqa masofaga yugurishda uchunchi o'rgatish texnikasi qaysi?
- 227.Qisqa masofaga yugurishda to'rtinchi o'rgatish texnikasi qaysi?
- 228.O'rta va uzoq masofalarning dastlabki o'rgatish texnikasi qaysi?
- 229.Masofa bo'ylab yugurish texnikasidan oldingi texnika faza qaysi?
- 230.Uzoq masofaga yugurishda finishdan oldingi texnika fazasini toping?
- 231.Yugurishlardagi to'rtinchi texnika bo'limini toping?
- 232.Finish texnikasidan keyingi texnika fazasi qaysi?
- 233.Uzunlikka sakrashni dastlabki texnikasi qaysi?
- 234.Uzunlikka sakrashda uchishdan oldin nimaga e'tibor berish kerak?
- 235.Uzunlikka sakrashda, sakrash usullarini qaysi texnika bilan o'rgatadi?
- 236.Uzunlikka sakrashda eng oddiy usul qaysi?
- 237.Uzunlikka sakrashda oxirgi texnikasi qaysi?
- 238.Balandlikka sakrashda dastlabki texnikasi qaysi?
- 239.Balandlikka sakrashda depsinishdan oldingi texnikasi qaysi?
- 240.Qaysi masofalar g'ovlar osha yugurishga kiradi?
- 241.Balandlikka sakrashda tushishdan oldingi texnikasi qaysi?
- 242.O'ta uzoq masofaga yugurishning asosiy fazasi qaysi?
- 243.Sportcha yurishda qanday holatda musobaqadan chetlashtiriladi?
- 244.Yugurishlarda marra chizig'i qaerda bo'ladi?
- 245.100m ga yugurish musobaqasi stadionning qanday joyida o'tkaziladi?
- 246.Uzoq masofaga yugurishda nechta texnika fazalari bor?
- 247.Qisqa masofaga start qanday beriladi?
- 248.Qaysi holatda marra hisoblanadi?
- 249.Marra chizig'ini sportchining qaysi qismi kesib o'tsa marra hisoblanadi?
- 250.O'rta masofaga start qanday beriladi?
- 251.Sportcha yurishda start qanday beriladi?
- 252.Uzunlikka sakrashda, nechta texnika fazasi bor?

253. Qaysi masofada tirgakdan foydalaniladi?
254. Sportcha yurishda qanaqa startdan chiqiladi?
255. O'ta uzoq masofaga yugurishning asosiy fazasi qaysi?
256. Yengil atletika Olimpiada o'yinlari turiga kiradimi?
257. Yengil atletika yugurish yo'lagining kengligi qancha?
258. Yugurishda vaqtni qanday asbob bilan o'lchanadi?
259. Qaysi masofaga tirgakdan foydalanilmaydi?
260. To'siqlar osha yugurishda suvli chuqur nechta bo'ladi?
261. Startga turganda qaysi oyoqni oldinga qo'yiladi?
262. Sportcha yurish oddiy yurishga nisbatan necha barobar samarali hisoblanadi?
263. Burilishlarda bajariladigan texnikani toping?
264. 200 m yugurishda tirgakni yo'lakchani qaysi tomoniga joylashtiramiz?
265. Qanday holatda start buzilishi (falstart) bo'ladi?
266. Yugurishda to'p ponna otilganda qaysi buyruq bajariladi?
267. Sportcha yurish masofalariga qaysilar kiradi?
268. Sportcha yurishning asosiy texnika fazifasi qaysi?
269. Uzoq masofaga yugurishda ikkinchi fazasini toping?
270. G'ov osha yugurishga qaysi masofa kiradi?
271. Yugurishda qanaqa start turlari bor?
272. Uloqtirish bo'limiga qaysi snaryadlar kiradi?
273. Erkaklar va ayollar uchun granataning ogirligi qancha?
274. Yugurishda start chizig'i qayerda bo'ladi?
275. Dastlabki olimpiyada o'yinlari qaysi davlatda bo'lib o'tgan?
276. Qaysi masofada tirgakdan foydalaniladi?
277. Ko'p kurashga qaysi Yengil atletika sport tur kirmaydi?
278. Balandlikka sakrashning necha xil turi bor?
279. (G'ov) Yengil atletika jihoziga kiradimi?
280. 30 m qaysi masofaga kiradi?
281. Umumrivojlantiruvchi mashqlar qanday belgilarga qarab tasniflanadi?
282. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni kompleksini qanday mashqlardan boshlash tavsiya qilinadi?
283. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'rgatish uslublarini aniqlang?
284. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o'tkazish uslublarini aniqlang?
285. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni majmuasi nechta mashqdan tuziladi?
286. O'qituvchi umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarib ko'rsatib berganidan keyin mashqni o'tkazish uchun qanday buyruq beradi?
287. Umumrivojlantiruvchi mashqlar yordamida qanday vazifalar hal qilinadi?
288. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni uzluksiz o'tkazishda qanday buyruq beriladi?
289. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni tugatish qoidalarini aniqlang?
290. Mashg'ulotda jismoniy tarbiya o'qituvchisi mashg'ulotni nimaga asoslanib tuzadi?
291. Dastlabki holat (D.H.) bu nima;
292. Qo'llarni mashqlar jarayonidagi oraliq holatini aniqlang!
293. Oyoqlarni bir qator safda turish holatini aniqlang!
294. Oyoqlarni bukilgan holatini ko'rsating!
295. Dastlabki holatlarda qo'llarning bukilgan holatini aniqlang!

### **Gimnastika va uni o'qitish metodikasi**

296. Gimnastikaning ta'lim rivojlantiruvchi turlariga nimalar kiradi?
297. Saf mashqlari yordamida qanday vazifalar xal etiladi?
298. Figurali yurish usullarini aniqlang?
299. Saflanish va qayta saflanishlarni aniqlang?
300. Ayollar uchun gimnastikaning turini toping!
301. Safdan orani ochish uchun qanday bo'yruq beriladi?

- 302.Safda orani yaqinlashtirish uchun qanday bo'yruq beriladi?
- 303.Safda xarakatni qaysi oyoqdan boshlash lozim?
- 304.Safda "Ortga" buyrug'i qaysi yelkadan bajariladi?
- 305.Doira bo'lib yurish uchun zalni qaysi qismida buyruq beriladi?
- 306.Harakatda bir ketma-ket qatordan to'rt ketma-ket qatorga saflanish uchun qanday buyruq beriladi?
- 307.Qirra bo'lib saflanishdan joyga ko'chish uchun qanday buyruq beriladi?
- 308.Harakatni boshlash uchun qanday buyruq beriladi?
- 309.Saf mashqlari nechta guruhga bo'linadi?
- 310."Qirra bo'lib" saflanish, saf mashqlarini qaysi guruhiga kiradi?
- 311."Ilon izi" bo'lib yurish saf mashqlarini qaysi guruhiga kiradi?
- 312.Juftlama qadamlar bilan orani ochish saf mashqlarini qaysi guruhiga kiradi?
- 313.Nechta davlatlarda sport gimnastikasi mavjud?
- 314.Gimnastika mashqlarini yozish shakllari?
- 315.Yonma-yon qator bu nima?
- 316.Ketma-ket qator bu nima?
- 317.Gimnastika atamalariga qo'yiladigan talablar?
- 318.Tayanib sakrashni aniqlang!
- 319.Osilish atamasini aniqlang!
- 320.Tayanish atamasini aniqlang!
- 321.Qo'shcho'pda tayanish turlarini aniqlang?
- 322.Turnikda tebranish atamasini aniqlang?
- 323.Ko'prik atamasini aniqlang?
- 324.Dars qismlarini aniqlang!
- 325."Atletik gimnastika"- gimnastikaning qaysi turiga kiradi?
- 326.Ovqatlangandan so'ng necha soatdan keyin shaxsiy atletik gimnastika bilan shug'ullanish kerak?
- 327.Gimnastika musobaqalari necha ballik sistemada olib boriladi?
- 328.Gimnastikachilarni tayyorlash turini aniqlang?
- 329.Sog'lomlashtirish gimnastika turlarini aniqlang?
- 330.Ertalabki gigiyenik gimnastika majmuasidagi birinchi mashqni aniqlang?
- 331.Qaysi vaqtda jismoniy tarbiyada tanaffuslari o'tkaziladi?
- 332.Asosiy gimnastika qaysi shaklda o'tkaziladi?
- 333.Gimnastikaning musiqiy shakli?
- 334.Ritmik gimnastika bilan kimlar shug'ullanishi mumkin?
- 335.Ertalabki gigiyenik gimnastika mashqlari majmuasi qancha vaqtdan keyin alishtiriladi?
- 336.Ertalabki gigiyenik gimnastikaning ahamiyati?
- 337."Ishlab chiqarish gimnastikasi"- gimnastikaning qaysi turiga taaluqli?
- 338.Ishlab chiqarish gimnastikasi qayerda o'tkaziladi?
- 339.Asosiy gimnastika vositalari bilan qaysi yoshda shug'ullanish mumkin?
- 340.Asosiy gimnastikani vositalariga nimalar kiradi?
- 341.Asosiy gimnastikani amaliy ahamiyati nima?
- 342.Amaliy gimnastikani nechta turlari bor?
- 343.Gimnastika darsida (mashg'ulotida) qanday vazifalar hal qilinadi?
- 344.Tayanib sakrashda qanday sport anjomlaridan foydalaniladi?
- 345.Gimnastikaning tarbiyaviy vazifalarini aniqlang!
- 346.Gimnastikada sog'lomlashtiruvchi vazifalarni aniqlang!
- 347.Mator zichligini oshirish uchun qanday uslublardan foydalaniladi?
- 348.Gimnastika mashqlarini o'rgatish nechta bosqichdan iborat?
- 349.Saf mashqlar yordamida qanday vazifalar hal etiladi?
- 350.Zalning (gimlamning) o'rtalarini aniqlang?
- 351.Qirra bo'lib saflanishdan joyga ko'chish uchun qanday buyruq beriladi?

- 352.Xronometraj ma'lumoti qanday vazifalarni hal qiladi?  
 353.Pulsometriya orqali hal qilinadigan vazifani aniqlang!  
 354.Erkin mashqlarni vositalari?  
 355.Gavdaning qo'llarga tayanib, ketma-ket bosh orqali to'ntariladigan aylanma harakatini aniqlang?  
 356.Ko'tarilish atamasini aniqlang?  
 357.Statik mashqni aniqlang?  
 358.Bir oyoqda turg'un holatni saqlash atamasini aniqlang?  
 359.Gimnastika atamaları deganda nimani tushunasiz?  
 360.Tayanib sakrashni aniqlang?  
 361.Oyoqlarning bukilgan holatini atama bo'yicha aniqlang?  
 362.Oldinga umbuloq oshish uchun ehtiyotlash (yordam berish)da qayerdan ushlanadi?  
 363.Yonga to'ntarilish uchun ehtiyotlash (yordam berish)da qayerdan ushlanadi?

### **Jismoniy tarbiya gigienasi va sportning tibbiy-fiziologik asoslari**

- 364.Gigiena so'zi nimani anglatadi?  
 365.Gigiena qanday fan?  
 366.Gigienaning o'rganish obektini ko'rsating?  
 367.Gigiena fani nechta omillarni o'rganadi?  
 368.Empirik usulda to'plangan gigienik ma'lumotlarni birinchi bo'lib jamlagan olim bu:  
 369.Kasalliklarning paydo bo'lishida ichki va tashqi muxit ta'sirini asoslab bergan olim bu:  
 370.Profilaktika va me'yorlar tartibini ishlab chiqadigan gigienaning amaliy bo'limi bu:  
 371.Sog'lik xolati bu:  
 372.Xozirgi vaqtda sog'liq uchun aniq va yashirin xavf tug'dirayotgan vosita bu:  
 373.Inson salomatligiga ta'sir etuvchi fizik omillar to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?  
 374.Inson salomatligiga ta'sir etuvchi biologik omillar to'g'ri keltirilgan qatorni aniqlang?  
 375.Tashqi muhit omillarini fizikaviy, kimyoviy, bakteriologik, toksikologik va radiologik jixatdan tadqiq qilish usuli qaysi?  
 376.Klinikalarda, korxonalarda, maktablarda va boshqa joylarda profilaktik tibbiy ko'riklar o'tkazish vaqtida qo'llaniladigan usul:  
 377.Odam a'zolari va sistemalarining vazifaviy holatini turli sharoitlarda tekshirish usullari  
